TASDIQLAYMAN:
Piskent tumani
"30-sonli Bolalarmusiqa
vasan`atmaktabi
_____ G`R.Yusupov

TASDIQLAYMAN:
Piskent tumani
"Barkamolavlod"
Bolalarmaktabi
_____ A.N.Xaydarova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI

XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI
"BARKAMOL AVLOD"
respublika bolalar markazi

HAMKORLIK MEMORANDUMI

TOSHKENT VILOYATI PISKENT TUMANI 30-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI

TOSHKENT VILOYATI PISKENT TUMANI "BARKAMOL AVLOD" BOLALAR MAKTABI

Toshkent viloyati Piskent tumani 2022 -yil

HAMKORLIK MEMORANDUMI

Piskent t **"_5_" sentyabr 2022 y**

Toshkent viloyati Piskent tumani 30-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi, ustav Bmsm direktori G'.R.Yusupov tomonidan yuritiluvchi, keyingi o'rinlarda BMSM deb ataluvchi tashkilot, bir tomondan, va Toshkent viloyati Piskent tumani "Barkamol Avlod Bolalar maktabi" nizom asosida direktor tomonidan yuritiluvchi, keyingi o'rinlarda "Barkamol avlod" bolalar maktabi deb ataluvchi tashkilot, ikkinchi tomondan, keyingi o'rinlarda birgalikda "Taraflar" deb ataluvchilar, ushbu Memorandumni (keyingi o'rinlarda "Memorandum") O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, quyidagi mazmunda tuzdilar:

1.Memorandum predmeti

1.1. Ushbu Memorandumning predmeti taraflar o'rtasida ta'lim, konsalting malaka oshirish, shuningdek, ilm –fan va tadqiqot faoliyatlaridagi hamkorlikdir.

1.2.Ushbu Memorandum taraflarning o'zaro hamkorligining umumiy tamoyillarini belgilaydi va taraflarga moliyaviy majburiyatlarni yuklamaydi. Hamkorlik qo'llami va doirasini kengaytirish va chuqurlashtirishni nazarda tutadigan ushbu Memorandumni ishlab chiqishda hamkorlikning ayrim yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oirish, shuningdek, ularni amalga oshirishning tashkiliy shakllarini aniqlash maqsadida, shuningdek, taraflarning moliyaviy majburiyatlarini, axborotning maxfiyligi masalalarini, oshirish jarayonida yuzaga keladigan boshqa jihatlarni aniqlash uchun taraflar o'zaro va alohida uchinchi tomon tashkilotlarini jalb qilgan holda shartnoma va bitimlar tuzadilar.Hamkorlikni amalga oshirish uchun taraflar o'zlarining, hamda xalqaro tashkilotlar va fondlarning mablag'larini jalb qilishlari mumkin.

2.Hamkorlikning asosiy yo'nalishlari

2.1. Taraflar o'z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy yo'nalishlarda hamkorlik qilishadi:

2.1.1. Hamkorlikda "Barkamol avlod" bolalar maktabining madaniyat va san'at yo'nalishidagi to'garaklar uchun dastur va qo'llanmalar ishlab chiqish:

2.1.2 O'zaro manfaatli soxalarda ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yishga ko'maklashish:

2.1.3. O'zaro kelishuv bo'yicha boshqa yo'nalishlarda hamkorliklik qilish.

3.Hakorlikning shakllari

3.1. Xamkorlik shakllari, taraflarning axborot-maslahat xamkorligini belgilaydi. shu jumladan:

3.1.1. Taraflar manfaatlariga daxldor rejalashtirilgan tadbirlar to'g'risida ma'lumot almashish:

3.1.2. Konferensiyalar, seminarlar, treninglarni birgalikda o'tkazish, taraflarning mintaqaviy va xalqaro tadbirlarida ishtirok-etish:

3.2. Taraflar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlarini ifodalovchi ushbu Memorondumda nazarda tutilmagan xamkorlik shakllari qo'shimcha bitim yoki alohida shartnomalar bilan tasdiqlanadi.

3.3.Taraflar ushbu memorondumni amalga oshirish doirasida bir-birlaridan kerakli ma'lumotlarni so'rashga xaqlidirlar.

04.Hamkorlik shartlari

4.1.Ushbu memorondum taraflarga moliyaviy majburiyatlarni yuklamaydi.

4.2.Taraflar tomonidan bir-biriga taqdim etiladigan ma'lumotlari maxfiy hisoblanadi.(oshkor etuvchi tarafning aniq ifoda etilgan niyatga muvofiq ochiq ma'lumotlar bundan mustasno).Taraflar olingan maxfiy ma'lumotlarning uchinchi shaxslarga oshkor qilinishining oldini olish uchun zarur choralarni ko'radilar.

4.3. "30-sonli BMSM" va "Barkamol avlod" bolalar maktabi o'rtasidagi ushbu Memorandum bo'yicha reklama sohasidagi hamkorlik shakli ikki tarafning ichki pozitsiyasiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4. Ushbu Memorondum bo'yicha barcha tadbirlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.5.Ushbu Memorondumning shartlari taraflarni shartnomalar va uchinchi shaxslarga nisbatan qabul qilingan xuquqiy majburiyatlarning boshqa shakllari bo'yicha majburiyatlarning boshqa shakllari bo'yicha majburiyatlardan ozod qilmaydi va ularning boshqa hamkorlik shakllariga bo'lgan xuquqlarini cheklamaydi.

5. Yakuniy shartlar

5.1.Ushbu Memorondumdan kelib chiqqan nizolar va nomuvofiqlar taraflarning kelishuvi orqali hal etiladi.

5.2.Ushbu Memorondumga o'zgartirishlar va qo'shimchalar taraflarning o'zaro kelishuvi bo'yicha taraflarning vakolatli vakillari tomonidan qo'shimcha bitimlarni imzolash yo'li bilan kiritilishi mumkin.

5.3.Ushbu Memorondum quyida ko'rsatilgan har ikkala taraf tomonidan imzolangan kunidan boshlab kuchga kiradi va yozma bildirishnoma orqali bekor qilishgunga qadar amal qiladi. Bunday holda, ushbu memorondum taraflardan biri boshqa tarafning yozma xabarnomasini olgan kundan boshlab olti oy o'tgach kuchini yo'qotadi.

5.4.Ushbu Memorondum bir xil kuchga ega bo'lgan ikki nusxada o'zbek tilida tayyorlangan.

6.Taraflar imzosi

Toshkent viloyati
Piskent tumani
"30-sonli BMSM"

Direktor
B.Yusupov
Imzo

Toshkent viloyati
Piskent tumani
"Barkamol avlod"
Bolalar maktabi

Direktor
A.N.Xaydarova
Imzo